XALQ DEPUTATLARI XONOBOD SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 19-iyun VII-8-60-1-30-K/25 Xonobod shahar

Xonobod shahar mahalliy byudjetining 1-chorak daromadlar rejasini ortirib bajarilgan qismi mablagʻlarini yoʻnaltirish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasining “2025 yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi Qonunining 20-moddasiga asosan shahar hokimligining shahar mahalliy byudjetining joriy yildagi 1-chorak daromadlar rejasini ortirib bajarilgan qismi mablagʻlarini yoʻnaltirish toʻgʻrisidagi takliflarini koʻrib chiqib, Xalq deputatlari Andijon viloyati Xonobod shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. .Shahar hokimligining shahar mahalliy byudjetining 2025 yil 1-chorak daromadlar rejasini ortirib bajarilgan qismi mablagʻlarini 1-ilovaga muvofiq xarajatlarga yoʻnaltirish toʻgʻrisidagi takliflari maʼqullansin.

2. Xonobod shahar iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻining birinchi oʻrinbosari N.Xusanonov bilan birgalikda:

Oʻzbekiston Respublikasining “2025 yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi Qonuni va Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi talablari asosida shahar mahalliy byudjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli oʻzgartirishlarni kiritish xamda amalga oshirilgan kassa xarajatlari yer sotishdan tushgan tushumlar xisobidan amalga oshirilsin;

Ajratilgan maqsadli mablagʻlarni oʻz vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli oʻrganish hamda oʻrganish natijalariga koʻra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablagʻlarni shahar mahalliy byudjetiga qaytarish choralarini koʻrsin.

3. Shahar gʻaznachilik boʻlinmasi (X.Gʻaniyev) ajratiladigan mablagʻlar boʻyicha shartnomalarni oʻz vaqtida roʻyxatdan oʻtkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini taʼminlasin.

3. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va

tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda shahar iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻining birinchi oʻrinbosari N.Xusanonov zimmalariga yuklatilsin.

6.Mazkur qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi

MAMATOV JALOLIDIN LA’TIBJONOVICH

Xalq deputatlari Xonobod shahar
Kengashining
2025-yil 19-iyundagi
VII-8-60-1-30-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Shahar hokimligining shahar mahalliy byudjetining 2025 yil 1-chorak daromadlar rejasini ortirib bajarilgan qismi mablagʻlarini yoʻnaltirilishi boʻyicha
T A Q S I M O T I

№	Chora-tadbirlar nomi	Ajratilishi lozim boʻlgan mablagʻ
1	“Tashabbusli byudjet” jamoatchilik fikriga asosan (30%)	39 831
2	Shaharda oʻtkazilayotgan DXX kubogi gʻoliblarini taqdirlash uchun sovgʻalar xarid qilishga	100 000
3	Shahar iqtisodiyot va moliya boʻlimi moddiy texnik bazasini yaxshilash uchun	23 000
	Jami	162 831